

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Ortiqova Sevaraning

“5220100 - Filologiya” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

Muhammad Yusuf Bayoniyning hayoti va ijodi

mavzusida yozgan

R E F E R A T I

MUNDARIJA

KIRISH

I Xiva adabiy muhiti va Bayoniy ijodi.

2. Bayoniy – serqirra badiiy iste’dod egasi

3. Bayoniy she’riyatining badiiy xususiyatlari

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

KIRISH

Bugungi kunda avlodlarimiz kamoloti yo'lida xizmat qiladigan mumtoz adabiyotimizning muqaddas namunalarini chuqur ilmiy talqin etish, omma ongiga singdirishning naqadar muhimligi haqiqatdir.

Chunki, adabiyotini, tarixini, mumtoz adabiyot merosini haqiqiy tanish xalq ma'naviyatini yuksakka ko'taradi. Ma'naviy dunyosini teranlashtirib, xalqlar o'rtasida qadr-qimmatini oshiradi. Insonlarni vijdonli, mehr-oqibatli qilib ulg'aytiradi. Zotan, bu fazilatlar mumtoz adabiyotimizning asosiy omili bo'lgan insonparvarlik g'oyalarining asosidir.

Muhammad Yusuf Bayoniy XIX asr adabiyotining yirik namoyondasi, tarixchi, tarjimon va san'atshunos siymo edi. U o'zining serqirra va sermazmun merosi bilan madaniyatimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Xususan, XIX asr Xorazm adabiy-madaniy muhitini uningsiz to'liq tasavvur qilish qiyin. Bayoniy bu davr ijtimoiy muhitining markaziy siymolaridan biriga aylanganining boisi shuki, u zamonasining oddiygina so'z san'atkori emas, balki asosiy xotirnavisi ham edi. Davrining ijtimoiy-siyosiy voqealari, madaniy hayoti, adabiyot va san'at ahlining o'zaro munosabatlari, mafkuraviy qiyofasi Bayoniy tarixiy asarlari orqali yaxlit manzara hosil qiladi. Bayoniy yaratgan ma'naviy xazinani o'zlashtirmay turib, u yashagan tarixiy davr, adabiy muhiy haqida tugal ilmiy xulosalar chiqarish qiyin.

I. Xiva adabiy muhiti va Bayoniy ijodi

Xivada Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Ahmad Tabibiy (1869-1911), Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Muhammad Yusuf Chokar (1872-1951), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Safo Mug'anniy (1882-1938), Komiljon Devoniy (1887-1938), Muhammad Rahim Rog'ib (1918 y. vafot etgan)kabi ko'plab shoirlar yashab ijod etdilar.

Adabiy harakat ko'proq ma'rifatparvar xon Muhammad Rahimxon II atrofida rivoj topdi. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz (1884-1910) saroyda adabiy muhitni maydonga keltirdi. 1864- yili 20 yoshida taxtga chiqib, salkam 47 yil hukmronlik qilgan bu xon, uni yaqindan bilgan ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, O'rta Osiyo xonlari orasida eng aqllisi, eng ziyolisi edi. U “usuli jadid”ga yo'l berdi, ruslar kelmasdan ancha ilgari Xivaga toshbosma olib keldi. Uning topshirig'i bilan Ahmad Tabibiy (1869-1911) “Majmuatush-shuaroyi Feruzshohiy” (“Feruzshoh shoirlari antologiyasi”) ni tuzadi. 30 shoirning she'ridan namuna beradi. Ular orasida Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Avaz O'tar (1884-1919) kabi xilma-xil darajadagi shoirlar bor edi.

Shoir va tarixchi Bayoniy shoh va shoir Feruz zamonida ko'plab madrasalar qurilganini, matbaachilik yo'lga qo'yilganini, kitobxonlik avj olganini, xonning o'zi bularning barchasiga boshchilik qilgani haqida ma'lumot beradi.

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”sedan: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog'kim, Yusufxoji ohund va Ismoilxo'ja ohund va Xudoybergan ohund va olimu ulum ma'qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbat

humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiyar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib edilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar".

Shoirlikning havosi ham, maqomi ham baland edi. Xonning atrofidagi amaldorlaridan, aka-uka qarindoshlarigacha she'r yozar edilar. Bayoniy ularni nomma-nom keltirgan. Masalan, Otajon to'raning "Komron", tug'ishgan ukasi To'ramurod to'ra (1855-1908)ning "Murodiy" taxallusi bilan she'rlar yozganini ma'lum qiladi.

Xonning amri bilan shoir Ahmad Tabibiy tomonidan 1908 yili yaratilgan "Majmuatush- shuaro" ("Shoiralar to'plami") she'riy (masnaviy yo'lida) bo'lib, 1638 sahifadan iborat edi. Qo'qon xoni Amir Umarxonning 1821 yilda tuzdirgan "Majmuai shoiran"ini esga tushuruvchi bu kitob "Majmuatush- shuaro" Feruzshohiy" nomi bilan tanildi. Undagi matnlarning aksariyati o'zbek tilida edi.

Xivadagi ikkinchi tazkira XX asrning 20- yillarida tuzildi. Uning muallifi Hojimurod Laffasiy (1880-1945) bo'lib, "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari" asarida xorazmlik 51 shoir haqida ma'lumot beradi.

Xorazm adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan, Xivaning 1804-1806 yillardagi xoni Eltuzarxonning chevarasi. Otasi Bobojonbek zamonasining taniqli ziyolilaridan bo'lgan.

Muhammad Yusuf yoshligidan yuksak tarbiya topdi, she'rga, ilmga, musiqaga ko'ngil qo'ydi. Iste'dodli shoir, muarrix, mutarjim, mug'anniy va musiqa bilimdoni bo'lib yetishdi. Zamondoshlari Ahmad Tabibiy, Laffasiy o'z tazkiralarda uning hayoti va faoliyati haqida atroflicha ma'lumot beradilar. Uning shaxsini ham, iste'dodini ham yuksak baholaydilar.

Bayoniydan bir she'riy devon, "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" kitoblari hamda yuqorida nomlari zikr etilgan 4 tarjima asari qolgan. Devoni XIX asrning 60-yillaridan 1905 yilgacha bo'lgan she'rlarini qamrab oladi. Tarix asarlarining katta qismini Bayoniyning o'zi guvoh bo'lgan voqealar tashkil qiladi. Xususan, "Shajarai Xorazmshohiy" dagi rus bosqini voqealari tasviri yuksak vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan. Shoirning 1905-1923 yillarda yozgan she'riy asarlari namunalarini o'sha davr vaqtli matbuotida uchraydi.

Muhammad Yusuf Bayoniy 1840-yil Xivada amaldor oilasida tug'ildi. Muhammad Yusuf boshlang'ich ta'limni uyda, maxsus muallimda oldi. Keyin Sherg'ozixon madrasasida o'qiydi. Bayoniyning otasi Bobojonbek Eltuzarxonning nabirasi edi. U bilimdon, she'rlar yozib turuvchi, nozik didli, ilg'or g'oyali kishi bo'lgan. Buni Bobojonbekning o'z davri ilg'or fikrli kishilari- Munis, Ogahiy kabilar bilan yaqin aloqada bo'lganligidan ham sezish mumkin. Filologiya fanlari nomzodi M.Zokirovning ma'lumotiga qaraganda, "Bayoniyning otasi zamonasining ko'zga ko'ringan xattot, musiqashunos va tarjimonlaridan bo'lib, o'z davrining Munis, Ogahiy kabi shoir, olim va tarixchilari bilan yaqin do'st edi".

Bu yuksak saviyadagi muhit yosh Muhammad Yusuf dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etdi. Uning shoirona hislariga turtki, serqirra iste'dod sifatida kamol topishiga asos bo'ldi. Bayoniy qalbida adabiyotga nisbatan so'nmas e'tiqod, mehr tug'iladi. Juda yoshligidan boshlaboq, ziyrak, zehni tez Muhammad Yusuf she'rlar mashq qila boshlaydi.

Muhammad Yusuf ilk she'rlaridayoq Bayoniy taxallusini tanlagan. Bayoniy taxallusiga mos – xoh nazmiga, xoh nasriy asarlariga nazar soling,- "so'zda ravshanbayon" ijodkor bo'lib yetishdi. 1865-1910 yillar Xorazmda hukmronlik qilgan Muhammad Rahim II Feruz tahallusi bilan ijod etgan. Davrning talantli shoir, olim, san'atkorlarini o'z atrofida to'playdi. Ularga rahnamolik qiladi. Bu an'anaga binoan, iste'dodli Muhammad Yusufni ham saroyga chaqirtiradi. Natijada, nazmda, ayniqsa, tarixnavislikda alohida salohiyat namoyish etgan Bayoniy hayotining katta qismi saroyda kechadi. U bir g'azalida beklar, amaldorlar orasida katta obro'ga, izzat hurmatga sazovorligi haqida so'zlaydi.

Garchi Bayoniy beklar ichra erur bo izzu joh,

Lek ul malohat kishvari shohiga bo'lmish qul bukun.

Bu, albatta, saroyda ijod uchun yaratilgan imkoniyat, Muhammad Rahimxonning ijobiy ishlaridan mamnuniyat ifodasi ham edi.

1910-1918 yillarda Xivada Asfandiyorxon hukmronlik qiladi. Bu davrda omma hayoti yanada og'irlashadi. Turmush va Xizmat taqozosi bilan xalqning azobi, iztirobga to'la ahvolini o'z ko'zi bilan ko'rgan Bayoniy saroy ayonlarining chirkin muhitidan nafratlana boshlaydi. Tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy muhitdagi muttasil o'zgarishlar shoir dunyoqarashiga ijobiy ta'sir qiladi. 1905-1907 yillarda avj olgan inqilobiy qo'zg'alishlar Bayoniy nazmining ruhini o'zgartirgan bo'lsa, Asfandiyorxonning kirdikorlari uning ijodida saroy muhitiga nisbatan tanqidiy munosabatni kuchaytirdi. Mafkuraviy qarama-qarshilikka kirishuvi, ijodida hukmron tabaqa kirdikorlarini fosh etish ruhi birinchi o'ringa chiqishi Bayoniyning saroydan ketishiga sabab bo'ldi. Uning saroyini tark etishi, taxminan, 1915-1916 yillarga to'g'ri keladi.

Muhammad Yusuf qolgan umrini ilm – ma'rifat yo'liga, adabiyot rivojiga sarflaydi. Ziyrak, shoirta'b, iste'dodli yoshlarni tarbiyalay boshlaydi. U shogirdlariga bir qancha dunyoviy fanlar haqida ma'lumot beradi. Uning ta'limini olgan Partiyaviy ustozini quyidagicha eslaydi: “Menga u zot tarix, mantiq, she'riyat qonun-qoidalari, arab va fors tillaridan o'qitishga kirishdilar” .

Bayoniy keksayib qolganiga qaramasdan, madaniyat va maorif idoralarida, jumladan, Laffasiy ma'lumotlariga ko'ra, 1920-1921 yillarda “Xiva maorif bo'limi huzurida avqofi shu'ba mudirligi vazifasida ishlay boshlaydi”. Bayoniy umrining ijtimoiy, adabiy faol kechgan so'nggi davri ijtimoiy ruh, ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan yo'g'irilgan. Bayoniy 1923 yil yanvar oyida 83 yoshida Xivada vafot etgan.

2. Bayoniy – serqirra badiiy iste’dod egasi

Bayoniyning ijodiy merosini quyidagi turlarga ajratib tadqiq etish mumkin: 1.She’riyati. 2.Tarixiy asarlari. 3.Tarjimalari. 4.Musiqaga oid asari.

Muhammad Yusuf Bayoniyning juda uzoq davom etgan ijodiy faoliyatida she’riyat asosiy o’rin tutadi. Muhammad Yusuf Bayoniy Xorazm tarixnavisligining yirik namoyandalaridan biridir. Bayoniy nazmining g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini uning tarixiy asarlarini chetlab o’tib, ko’nglidagiday yoritish va ko’zlangan maqsadga erishish mumkin emas. Chunki Bayoniy hayotiy faoliyati va madaniy merosining katta qismini uning tarixiy asarlari tashkil etadi. Har qanday adibning nazmini uning nasri bilan bog’liqlikda o’rgangan ma’qul. Tarixiy asarlari Bayoniyning nasriy merosi hamdir. Uning “Shajarayi xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asarlari muallifning muarrixlik salohiyatidagina dalolat bermaydi. Ularni XIX asr o’zbek nasri namunalari sifatida o’rganish ham muhimdir. O’zbek nasri tarixining bu davriga hali qo’l urilmaganligi ham bu asarlarni tadqiqot doirasiga tortishni taqazo etadi. Bayoniy tarixiy asarlarini o’rganish shoirning adabiy-ijtimoiy muhitini aniq tasavvur qilishimizga, badiiy asarlaridagi fikr-g’oya, obraz ijodiy takomil, ruhiy tovlanishlarning hayotiy asoslarini to’g’ri idrok etishimizga imkon beradi. Shu bilan birga Bayoniy solnomalarining tarixiy-adabiy qimmatini ham ochiladi.

Tarixiy fojialar zanjiridan uzilib qolgan bu halqa haqida nega shoir sukut saqlaydi? Nega o’zga shoir va yozuvchilar, xalq ziyolilari tarixning bu davri haqida sukutda edilar? Har qalay, sukutda ham turfa hikmat va ma’no bordir. Lekin asosiy sabab xalqning avomu ziyolisi madaniy merosidan uzilib qolganida bo’lsa kerak. “... Biz o’z tariximizdan shu qadar uzoqlashib ketdikki,-deya kuyunib yozadi shoir Xurshid Davron, - bolalarimiz 1873 yilda Xiva qanday zabt

etilgani haqida umuman tushunchaga ega bo'lmagan holda, 1812 yilgi Moskva yong'ini haqida keragidan ortiq tafsilotlargacha gapirib beradilar”.

Xuddi ana shu – Xivaning chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi haqidagi ma'lumotlarni mujassamlashtirgan, har biri necha-necha tarixiy romanlarga manba bo'lgulik solnomalar madaniy merosimiz xazinalarida o'z tadqiqotchilari, adabiy kashfiyotchilari, noshirlariga ilhaq. Bu asarlar nashr etilmaguncha, 1873 yildan 1914 yilgacha bo'lgan tariximiz avlodlar uchun sirligicha qolaveradi.

Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan shajaraviy tarixnavislik bor. Bu chashmaning boshida Abdulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy turadi. Ulardan qolgan muqaddas tarix kitoblarining qimmatini juda baland. Bularga Markaziy Osiyo tarixining zukko bilimdoni V.V. Bartold yuqori baho berib, ulargacha bu qadar mukammal tarix bitilmaganini ta'kidlaydi.

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” hamda “Xorazm tarixi” nomli asarlari Xorazm va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, XIX asr Xorazm adabiy muhitini o'rganishda juda nodir manbadir. Bayoniy o'z salafлари izidan borib, badiiy ijod bilan shug'ullanib qolmay, Munis va Ogahiy yaratgan tarixiy asarlaridagi voqealarini qaytadan yozdi, to'ldirdi, o'z davri voqealari asosida tarixning yangi sahifalarini bunyod etdi.

Bayoniy adabiy muhitini o'rganishda ham birinchi navbatda va bevosita “Shajarayi Xorazmshohiy” asariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. “Shajarayi Xorazmshohiy” Bayoniy davri Xorazm adabiy muhiti haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Asarda Xorazm adabiyotining Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil, Xusraviy, Komron, Murodiy kabi namoyondalari hayoti va ijodi haqida yangi ma'lumot mavjud. Adabiy manbalarda uchraymaydigan ba'zi nazmiy asar va parchalar turli munosabat bilan keltirilgan. Solnoma Bayoniy hayoti va ijodining bizga noma'lum tomonlarini oydinlashtiradi, shoir faoliyati haqida ilmda mavjud kemtikliklarni to'ldiradi. Tarixiy voqealar tadriji, takomilidan ramz inqilobi va Bayoniy inqilobiy she'riyatining hayotiy asosi anglashiladi. Asarni o'qirkanmiz, shoir yashagan sharoit, otasi, akasi, ko'ngliga yaqin, hamfikir do'stlari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. “Shajarayi

xorazmshohiy” Xorazm xalqining urf – udumlari, marosim – ma’rakalari, etnik sifatlari, til xususiyatlarini o’rganishda ham muhim manbadir.

Bayoniyning otasi Bobojonbek va akasi Yaxshimurodbek haqida “Shajarayi xorazmshohiy”da quyidagicha ma’lumot o’qiyimiz: “Ushbu yilkim, hijratning ming ikki yuz sakson sakkizlanchisi va quyi yili va sunbulaning avoxiri erdi, hazrati allomayi zamon va olimi ulumi mutadovil va pinhon, ya’ni Bobojonbek ibn Olloberdi To’ra ibn Eltuzarxoni jannatmakon baqo olamig’a azm etdilar, ayyomi hayotlari oltmish to’rt yil edi. Ul hazrat ilmi hikmatda yaktoyi dahr erdilar va “Kitobi shabiston ” va “Devoni Bedil” ning mug’allaqotlari hallida olamoroylari iqdakushod erdi. Lihozo huzuri vofiyassururlari marjii ulamo va fuzalo erdi va tibu ramlu nujumu hisob fanlarida ham bag’oyat mohir erdilar. Rahmatullohi alayh. Ul hazratdin ikki o’g’il qoldi. Valadi irshadlari sarvari atibbo Yaxshimurodbekdurlar. Ikkilanchisi ushbu faqiri haqiri Bayoniykim, bu huruf roqimidurman”

Asar Bayoniyning ijodkor sifatida estetik pozitsiyasi, ijodiy prinsiplarini belgilashda ham muhim manba hisoblanadi.. Chunki har bir voqea tasviri ortida ijodkor o’y-fikrlari, munosabati sezilib turadi. Muallif Munis, Ogahiy, Navoiyga ixlosi juda balandligini izhor etadi. Fikrlari, xulosalarini ularning asarlaridan parchalar keltirib dalillaydi.

“Shajarayi xorazmshohiy” XIX asr Xorazm adabiy muhiti va umuman, Xorazm adabiy muhitini aks ettiruvchi asosiy manbalar sirasidandir. Uning tazkira tipidagi adabiy manbalardan farqi va afzalligi shundaki, u adabiy muhit manzaralari, jarayonlarini, mafkuraviy hayotni tirikligicha, harakatda, ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan munosabatda tasvirlaydi. Solnoma sahifalarida shu paytgacha feodal – saroy adabiyoti deb bir chetga surib qo’yilgan Xiva xonliklari tevaragida shakllangan adabiy muhitning haqqoniy qiyofasi, ijobiy va slbiy xususiyatlarini kuzatish mumkin. Ushbu tarixnomada Xorazm adabiyoti ahlining, xususan, Bayoniy davridagi kechmishlari batafsil aks ettirilgan. Chunki muhit markazida turgan, rasmiy devon ishlarida faol qatnashgan Muhammad Yusuf o’z ko’zi bilan ko’rgan – kechirganlarini yozgan. Asarda Feruz taxallusi

bilan qalam tebratgan shoir, ya'ni Muhammad Rahimxoni soniyning XIX asr oxiri Xorazm adabiyoti va san'atining yirik homiysi ekanligini e'tirof etuvchi dalillar ko'p. "Shajarayi xorazmshohiy" adabiyot tarixi ilmidagi ayrim chalkashliklarni tuztishga, turli adabiyot namoyondalari haqida mavjud tasavvurni kengaytirishga, feodal –saroy adabiyotini yangidan o'rganish va baholashga birlamchi manbalar qatorida xizmat qila oladi.

Shuningdek, bu asar Muhammad Yusuf Bayoniy adabiy merosini ham asosiy manbalaridandir. Unda Bayoniyning o'nlab ta'rixlari va boshqa turdagi nazmiyotidan parchalar mujassam. Solnomada muallifning adabiyot va san'atga, badiiy ijod qonuniyatlariga, zamondoshu hammaslak qalam sohiblariga, tarix hodisotlariga estetik munosabati yaqqol aks etgan.

Nihoyat, "Shajarayi xorazmshohiy" XIX asr o'zbek nasri namunasi sifatida xam qadrli. U til va uslubining soddaligi, xushbayonligi, badiiy usullar hamda adabiy lavhalar bilan omuhtaligi, geografiya, etnografiya kabi turli sohaga oid ma'lumotlarni qomusiy xarakter kasb etgani bilan o'zbek nasri tarixida muhim o'rin tutadi. Asar o'zbek adabiy va badiiy tili boyliklari, ifoda usullarini qamrashi jihatidan ona tilimiz tarixining alohida bir davri ko'zgu sidir.

3. Bayoniy she'riyatining badiiy xususiyatlari

Bayoniy ijodiy faoliyatining bu bosqichida, asosan, lirik she'rlar yozadi. Yillar o'tishi, xalq hayoti va saroy hayoti bilan chuqurroq tanisha boorish shoir nazmiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Uning she'riyati mazmun va shakl jihatidan o'zgarib, boyib, yangilanib boradi. Oshiq qalbining samimiyligi va jasorati mujassamlashgan satrlarda haqiqiy va buyuk muhabbat mevasi bo'lgan olijanob tuyg'ular, ishq iztiroblari, visol quvonchlari o'z aksini topadi.

Bayoniy lirikaning o'ndan ortiq janrida qalam tebratgan serqirra badiiy iste'dod sohibidir.

G'azal – Bayoniy lirikasida eng yuqori mavqeni egallaydi. U g'azalnavislikdagi an'anaviy mavzularni rivojlantirishga va o'z davri uchun muhim masalalarni ham qamrab olishga erishgan. Shoir dilkash g'azallar orqali muhabbatga sadoqat, insonlararo mehr-shafqat, do'stlik, vatanparvarlik, himmat, sahovat, hayotsevarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni ilgari surgan.

Ijtimoiy-siyosiy hayot, tarixiy taraqqiyot shoir dunyoqarashida katta o'zgarish yasaydi. XX asr boshlariga kelib o'zi yashayotgan muhit, davr bilan kelisha olmaslik shoir she'riyatining yetakchi mavzusi bo'lib qoldi.

1905-1917 yillardagi inqilobiy harakatlar, hurfikr g'oyalar oqimining avj ola boshlashi Bayoniy she'riyatida chiqur iz qoldirdi. Zamondagi notinchlik, xalqning chidab bo'lmas darajadagi o'gir ahvoli Bayoniy qalb torlarini chertib o'tadi. Shoir el taqdiriga, xarob qilinayotgan vatan qismatiga achinadi:

Chun hukumat ahli tipdilar jahonda izzu shon,
Ayladilar dahraro faqr ahlining bag'rini qon.
Kizb ila kinga yasab qonune, g'adr aylab ayon,
Ne shariatg'a, ne zakonga amal aylab ul on,

Mustabidlar javridan bexonumon o'ldi jahon!

“Mustabidlar javridin...” muxammasi tanqidiy xarakterga ega bo'lib, unda hukmron sinf vakillarining xudbinligi, sitamkorligi fosh etiladi. Bu she'r “javru zulm ahli bori maqsadlariga yetgan, mulki ko'p bo'lsa bas,el qirilganidan g'am yemagan xon va beklar ” zamonining, kishilar dunyodan “zor giryon, armon bilan ketgan” nochorliklar, iztiroblar zamoninig yaxlit bir manzarasini ifodalab beradi. Muxammasda Bayoniy tinchlik, baxtiyorlik muammosini ilgari suradi. Turli talon-taroj harbiy janjallarga yo'l qo'ymaslik g'oyasini kuylaydi. Shunday bir zamonda Oktabr revolyutsiyasi yuz berdi. Bu inqilob mafkurani ostin-ustin qilib yubordi. Xalqqa bu hodisa asrlar mobaynida orzulangan chinakam erk, ozodlik, hurriyat, tenglik g'alabasi deb tushuntirildi.. Xalqning avomu ziyolisi bunday olamshumul fitnaga ishontirildi. Ulisning butub boshli bir avlodi aldandi. Buni shoir o'zi orzu etgan hurriyat deb tushundi. Bayoniy singari, Hamza, Sadridin Ayniy, Anbar Otin, Sidqiy kabi ijodkorlarimiz ham adashdilar. Aldangan avlodning bu otashin namoyandalari Oktabrni mamnuniyat bilan qarshi oldilar va o'zbek inqilobiy adabiyotini maydonga keltirdilar. Ko'lamdor bu adabiyotni chetlab o'tish yoki yo'qqa chiqarish qiyin. Ulkan merosimizning ushbu mashruh parchasini tanqidiy nigoh bilan o'rganish maqsadga muvofiq.

Muhimi shuki, shoir o'z zamonasi va tushunchasidan kelib chiqib ilhom va hurriyatni kuyladi. “Ahli ash'ora” she'ridagi mana bu satrlar shoirning har qanday siyosat va mafkuradan xoli ijodkorlik nuqtai nazarini, hattoki vasiyatini ham ifodalaydi:

Elni kurashga chorlang,
Ma'rifat sari yo'llang,
Jabhalardan so'z so'zlang,
Shoirning iftixori,
Fidoyilarni kuylang
Shoir baxti shundadir
...Saodatli damlarda,
G'amsiz yorug' kunlarda,

Bayoniyni yod aylang,

Ruhimga duo aylang...

Bayoniy orzulagan saodatli davr milliy mustaqillik tufayli qo'lga kiritildi. Hozir butun mamalakatimiz bo'ylab hurriyat- mustaqillik g'alabalarini mustahkamlash kayfiyati hukm surmoqda. Ana shu dolzarb pallada baxtli davrimiz kurashchilari, zahmatkashlari, Da'vatkorlarini yod aylash, ularning bemisl xizmatlarini ta'kidlash zamonamiz va tariximiz oldidagi mas'uliyatli, muqaddas burchdir.

Muhammad Yusuf Bayoniy o'zbek mumtoz she'riyatining an'anaviy mavzu va g'oyalarini davom ettirdi, rivojlantirdi. U o'z shaxsiy ijodiy takomil bosqichlarida an'anaviy uslubdagi ijodkordan otashnafas erkparvar shoir darasiga o'sib yuksaldi. Bayoniy ijodining mohiyati el dardini kuylash, xalq baxti uchun kurashishdan iboratdir.

O'zbek mumtoz she'riyatida nodir badiiy usullardan biri "radd ul matla"dir. Yuzaki qaraganda, bu san'at matla'dagi bir misraning yoki ikki misraning ham takrorlanishi, xolos. Radd ul matlaning asl mohiyati esa g'azal matla'ida qo'yilgan mavzuning butun asar davomidagi izchilligini ta'minlash, badiiy qurilmadagi yaxlitlikni saqlab turish va bosh g'oyani ta'kidlashdan iborat. Fikrimizni asoslash uchun to'liq bir g'azal keltiramiz:

Yorning ruxsoridek bir gul jahonoro emas,
Qomati zebolig'icha sarv ham zebo emas.
Sunbul ermas zulfining monanadi bu olam aro,
Mo'yining bo'yicha mushki anbari soro emas.
Aylasa qoshi ko'zi qattolig' rasmini fosh,
Qahramon ham bu sifat qattoli beparvo emas.
Mahfil ichra la'lidin bo'lsa shakarafshon agar,
Shakkariston ichra to'ti oncha shakkarxo emas.
Bo vujudi za'fim o'ksitmas sitamni bir zamon,
Garchi ahvolim oning ollida nopaydo emas.
Ey, Bayoniy, bog'aro qil vasfi ruxsorin bayon,

Yorning ruxsoridek bir gul jahonoro emas.

G'azal satrlaridan ko'rinadiki, shoir matla'da qo'yilgan masalani maqta'ga qadar izchil yoritadi. Maqta'da esa radd-ul-matla' san'atini qo'llaydi, ya'ni, maqta'ning ikkinchi misrasida matla'ning birinchi misrasini aynan qo'llaydi. Bu bilan shoir butun g'azal davomida muhokama qilingan masalaga yakun yasaydi. Radd-ul-matla' g'azalning kompozitsion tugalligini ham ta'minlaydi, shuningdek, asardagi bosh masalani oldingidan kuchliroq urg'u bilan yana bir bor ta'kidlaydi. Shoir matla'da jahon ichra yorning jamoliday go'zallik yo'q, degan tezisni isbotlash uchun ma'shuqa husnini tabiatdagi eng go'zal narsalar bilan solishtirib chiqdi. G'azal nihoyasida esa, jahonda go'zal narsalar ko'p (ular hamisha yorga qiyos qilinadi), lekin, baribir, yor jamoliga teng keladigan husn jahon bog'ida aslo topilmaydi, degan xulosaga keladi.

Bayoniyning poetik uslubini bezab turadigan, uning badiiy tasvirdagi ajoyib aqidalaridan birini ifodalaydigan san'at isroli masaldir. Shoirning o'z fikrlarini asoslash yoxud ifodalash maqsadida she'rlarida xalq maqollari, ibora va hikmatlaridan foydalanishiga irsoli masal deyiladi. Bayoniy o'z asarlarida xalq maqollarini juda o'rinli ishlatadi. Bu uning xalq ijodini puxta bilishi, qadrlashi va o'z ijodida xalqona teranlik hamda soddalikka intilishdan nishonadir. Bayoniyning birgina bayti uning ijodidagi bu fazilat haqida tasavvur hosil qilishi mumkin:

Lutfingni qadrin kim bilur juz bu asirning, ey pari,

“Zar qadrini zargar bilur, javharni qadrin javhari”.

Xalq maqoli baytning mazmunigagina ta'sir etib qolmay, uning tushunarli va ohangdor bo'lishini ham ta'minlagan.

Tajnis o'tmish adabiyotimizda ham, hozirda ham faol qo'llanadigan ma'naviy san'atlardandir. Bayoniy o'z she'riyatida bu san'atdan mahorat bilan foydalaniladi.

Yetdi chun qoshingni ikki tig'ining avsofig'a,

Vasf eta olmay tavaqqufsiz qalam bo'ldi qalam.

Bir jins, bir shakldagi qalam so'zi bir misraning ikki joyida ikki ma'noda ishlatgan. Birinchisi asl, ya'ni yozuv quroli ma'nosida, ikkinchisi esa kesilgan, bo'lak, qirqim ma'nolarida qo'llangan. Shoir bunday so'z o'yini yaratish natijasida bir baytning o'zida bir necha ma'noni ifodalashga erishgan. Baytni sharh etadigan bo'lsak, quyidagicha ma'nolar chiqadi.

Bayoniy she'riyatining timsollar markazida ham vujudida zamon va zamin tajassum topgan, qaynoq qalbli, hassos inson turadi. “ U jamiyat bilan birga yashagan, uni nuqsonlardan tozalab sog'lomlashtirish uchun kurashgan, jamiyatning ilg'or a'zosidir”. Muhammad Yusuf Bayoniyning hayot va ijod yo'lidagi ziddiyatlar shoir nazmidagi lirik qahramon xarakteriga ham ta'sir etgan. Lirik qahramon qiyofasini shoir ijodining takomil bosqichlari bilan bog'liq xolda urganish Bayoniyning lirik xarakter yaratish mahoratini to'g'ri inkishof etishning omilidir.

UMUMIY XULOSALAR

Muhammad Yusuf Bayoniy XIX asr oxiri va XX asr boshlari o'zbek adabiyoti hamda madaniyatining yirik namoyandasidir. Ko'p tarmoqli yo'nalishda ijod etgan bu adibning yaratib qoldirgan merosi ham serqirra. Uning she'riyati, tarixiy asarlari, tarixiy-badiiy tarjimalari madaniy merosimizning muhim qismini tashkil etadi.

1. Muhim tarixiy davr va madaniy muhitning in'ikosi, mahsuli sifatida ham Bayoniy ijodiy faoliyati diqqatga sazovor. U Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan istilo etilgan, Oktabr inqilobi Markaziy Osiyoda amalga oshgan dolg'ali davrlarda yashab ijod etdi.
2. Xiva madaniy voqeligini hayotiy aks ettiruvchi tarixiy-adabiy yodgorliklaridan biri "Shajarayi Xorazmshohiy" asaridir. Ushbu asar Xorazm adabiyoti tarixi sahifalarini, ayniqsa, muallif yashab ijod etgan adabiy muhit lavhalarini yorqin gavdalantirishi bilan qimmatlidir.
3. "Shajarayi xorazmshohiy" asari Bayoniy adabiy merosining asosiy manbalaridandir. Unda Bayoniyning o'nlab ta'rixlari va boshqa turdagi nazmiyitidan parchalar mujassam.
4. Bayoniy devonida inson, xalq, vatan, hayot, haq-haqiqat dardi ishqi bilan yo'g'rilgan asarlar mujassam. Bayoniy she'riyatida insonga mehr-muhabbat, xalq erki, osoyishtaligi, istiqboli; vatan ravnaqi istagi otashin va mahzun misralarda yangraydi.
5. Bayoniy devonida Sharq she'riyatining o'ndan ortiq turi o'rin olgan. U g'azal, muxammas, mustazod, ta'rix janrlarida mohirona ijod qilgan, badiiyat sirlarini to'liq o'zlashtirgan.

Ushbu referatda Bayoniy ijodiyotining ayrim jihatlari o'rganildi. Serqirra bu merosning o'rganilishi lozim bo'lgan jihatlari anchagina.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T. Ma'naviyat, 2008.
2. Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari. -T.: Universitet, 1993.
3. Yusupov Sh. Furqat yillarida. –T.: Adabiyot va san'at, 1984.
4. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. T.: O'qituvchi, 1990.
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish. –T.: Ma'naviyat, 2002.
6. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. –T.: Ma'naviyat, 2004.
7. Yunusov M. Komil Xorazmiy. –T., O'zadabiynashr. 1960.
8. Jumaxo'ja Nusratullo. Feruz-madaniyat va san'at homiysi. –T.: Fan, 1995.
9. G'anixo'jaev F. Ahmad Tabibiy (hayoti va ijodi). –T.: Fan, 1970.
10. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari. –T.: Sharq, 1994.

